

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDAGI TUTGAN O‘RNI

Erkinov Davronbek Yusupovich

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta’limi fakulteti,
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasи, 57-20 guruh talabasi
erkinovdavron02@gmail.com

Kadirov Ulug‘bek Ravshanovich

Toshkent kimyo-texnologiyasi instituti, Menejment va kasb ta’limi fakulteti,
Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasи

ulugbekkadirov1@gmail.com

Annotatsiya. Maqola mamlakatimizdagи “yashil” iqtisodiyot masalalariga bag‘ishlangan va sanoat korxonalarini uchun ushbu turdagи iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni tahlil qiladi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari ekologik muammolarda barqaror rivojlanishdan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir chora-tadbirlar barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlanirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishni ta`minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o‘tishda har bir tarmoq va sohalarda davlatimiz tomonidan ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, yashil iqtisodiyotni rivojlanirish, investitsiya, barqaror iqtisodiy o‘sish.

Annotation. The article is devoted to the issues of the “green” economy in our country and analyzes the problems and opportunities associated with this type of economy for industrial enterprises. Many countries of the world have moved from sustainable development to “green economy” in terms of environmental problems. Today, every measure implemented in our country is focused on achieving sustainable economic growth and developing a green economy. In order to ensure the transition to a green economy, our state is creating many opportunities in every industry and sector.

Key words: green economy, economic development, development of green economy, investment, sustainable economic growth.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot - bu aholi farovonligini va atrof-muhit holatini yaxshilaydigan innovatsion, resurslarni tejaydigan iqtisodiyot. Yashil iqtisodiyotga o'tish xalqaro miqyosda va mamlakatimizda ham asta-sekin ommalashib bormoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tishning muhimligi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda va atrof-muhitdagi muammolarni yaxshilashda namoyon bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot - bu o'ziga xos yangi iqtisodiyot bo'lib, hozirda bu iqtisodiy tizimga o'tish ko'plab mamlakatlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yashil iqtisodiyotni aholi farovonligini oshirishga hissa qo'shadigan va atrof-muhit uchun xavflarni kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida tavsiflaydi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, issiqxona gazlari va chiqindilarini kamaytirish va yangi yashil texnologiyalarni joriy etishda muhim o'rinn tutadi. Yashil iqtisodiyot 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab, resurslardan samarali foydalanish bilan barqaror rivojlanishga erishish, iqlim o'zgarishi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi farovonligini oshirish muammolarini hal etishda muhim vazifani bajaradi. Jahonda yashil iqtisodiyot iqtisodiy siyosatning kun tartibi sifatida ko'p jihatdan ekologik taraqqiyot iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bilan uzviy bog'lanib, barqaror rivojlanishga aylanganda shakllana boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Komissiyasi tomonidan ta'riflanganidek, barqaror rivojlanish - kelajak avlodlarga zarar yetkazmasdan, hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanishdir. 1980-yillarning oxirida shu ma'noda qabul qilingan barqaror rivojlanish, birinchi navbatda, xalqaro hamkorlikning yangi nutqi, barcha mamlakatlar birgalikda harakat qilishlari kerak bo'lgan yorqin kelajakning o'ziga xos varianti bo'ldi. Ammo bu konseptsiya o'ziga xos iqtisodiy voqelikdan, davlatlar va biznesning o'ziga xos manfaatlardan ancha uzoq bo'lib chiqdi.

Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy yo'lga qo'yilgan bo'lib, u quyidagi manfaatlarni hisobga olishi kerak:

- strategik milliy manfaatlар - resurslar samaradorligini oshirish, energiya xavfsizligini ta'minlash, yangi texnologiyalarni modernizatsiya qilish va joriy etish, moliyaviy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy inqirozlarning oldini olish;

- siyosiy va davlat-ma'muriy elita manfaatlari - elektorat qo'llab-quvvatlashini olish, davlat-xususiy o'zaro munosabatlarning yangi shakllari imkoniyatlari, xalqaro miqyosda qonuniylashtirish;

- aholi manfaatlari - turmush farovonligini oshirish, ekologik muammolarni hal qilish, shu jumladan: chiqindixonalar va havoning ifloslanishi, transport muammolari;

- biznes manfaatlari yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish, yangi raqobatdosh imkoniyatlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologiya va energiya samaradorligini ta'minlashda bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Barqaror rivojlanish uchta komponentning - iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan har tomonlama bog'lanishini o'z ichiga oladi. Oxirgi yigirma yillikda shakllangan yashil iqtisodiyot konseptsiyasi ushbu komponentlar o'rtasida yanada uyg'unlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, bu mamlakatlarning barcha guruhlari - rivojlangan, rivojlanayotgan va iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlar uchun maqbul bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanish muammolari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy fan va falsafaning boshqa ko'plab yo'naliшlarining g'oyalarini o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot konseptsiyasi tarafdorlari hozirgi iqtisodiy tizim nomukammal, deb hisoblaydilar. Garchi u umuman odamlarning, ayniqsa, uning alohida guruhlari turmush darajasini oshirishda ma'lum natijalar bergen bo'lsa-da, ushbu tizim faoliyatining salbiy oqibatlari sezilarli: bular ekologik muammolar (iqlim o'zgarishi, cho'llanish, biologik xilma-xillikning yo'qolishi), tabiiy kapitalning kamayishi, keng qashshoqlik, toza suv, oziq-ovqat, energiya yetishmasligi, odamlar va mamlakatlarning tengsizligi. Bularning barchasi hozirgi va kelajak avlodlar uchun xavf tug'diradi. Iqtisodiyotning hozirgi modeli jigarrang iqtisodiyot deb ataladi. Insoniyatning omon qolishi va rivojlanishi yashil iqtisodiyotga, ya'ni uzoq muddatda inson farovonligini oshirishga olib keladigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat tizimiga o'tishni talab qiladi.

Yashil iqtisodiyot tashabbusi uchta asosiy tamoyilga asoslanadi:

- milliy va xalqaro darajada tabiiy xizmatlarni baholash va ta'kidlash;
- yashil ish o'rinalarini tashkil etish va tegishli siyosatni ishlab chiqish orqali aholi bandligini ta'minlash;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanish.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun iqtisodiyotning 10 ta asosiy tarmog'iga sarmoya kiritish zarur:

- qishloq xo'jaligi;
- uy-joy kommunal xo'jaligi;
- energetika;

- baliqchilik;
- o‘rmon xo‘jaligi;
- sanoat;
- turizm;
- transport;
- chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishslash;
- suv resurslarini boshqarish.

O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish yuzasidan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta`minlash maqsadida strategiya va qarorlar qabul qilinmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida yashil va inkiyuziv iqtisodiy o‘sishni ta`minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida asosiy vazifalar belgilanib, ularning ijrosini yuzasidan amaliy yordam va ko‘rsatmalar berilmoqda. Bu esa o‘z navbatida yashil iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyoti va yangi ish o‘rinlari yaratish uchun qanchalik foya ekanligini ko‘rsatadi. Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra yashil iqtisodiyotni shakllantirish yo‘nalishlari quyidagilar:

- qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;
- chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- “Toza”, barqaror “yashil” transportni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish;
- uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish;
- ekotizimlarni saqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish;
- “Yashil texnologiyalar”ni yaratish va sotish bozorlarini rivojlantirish.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tishni ta`minlashdagi qabul qilingan strategiya va qarorlar ijrosini ta`minlashda aholini atrof-muhitning yomonlashuvi sabablari to‘g‘risida axborot bilan ta`minlashga qaratilgan loyihalarga ustuvor ahamiyat berish lozim. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi sifatini oshirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va ishlab chiqarishda yashil

texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash, yashil iqtisodiyotga o'tishda investitsiyalari hajmini oshirish lozim.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish mamlakat iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda investitsiyalar o'sishiga ham hissa qo'shadi. Yashil iqtisodiyotga o'tish qashshoqlikni kamaytirish va umumiy hayot sifatini yaxshilash maqsadida xizmatlar va infratuzilmalardan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan bo'lib hisoblanadi.

Texnologiyalar uchun qayta tiklanadigan energiya manbalari hududlarda aholining turmush darajasini oshirish va salomatlik holatini yaxshilashga muhim hissa qo'shishi kutilmoqda. Tejamkor yechimlar toza biomassa va tarmoqdan tashqari quyosh fotovoltaik qurilmalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, ular past operatsion xarajatlar va moslashuvchan kichik miqyosda joylashtirish bilan ajralib turadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda ekologik shaharlarni yaratishning eng muhim sharti binolarni modernizatsiya qilishdir, chunki binolarni isitish, yoritish, sovutish va ventilyatsiya qilish atmosferaga issiqxona gazlari chiqarishning dunyodagi eng muhim manbalaridan biridir. Yangi yashil binolarni qurish va yuqori energiya va resurs iste'moliga ega bo'lgan mavjud binolarni ta'mirlash juda kam xarajat evaziga sezilarli xarajatlarni tejash imkonini beradi.

Sanoatning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida o'zgarishi sayyoramizdag'i hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Yashil iqtisodiyotga o'tish mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qashshoqlikni kamaytirishda muhim omil bo'lmoqda.

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, qisqa muddatda yashil iqtisodiyotga o'tish yalpi ichki mahsulot o'sishini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va bandlikni oshirishni an'anaviy iqtisodiyotga nisbatan bir xil yoki hatto undan yuqori sur'atlarda ta'minlashga qodir. O'rta va uzoq muddatli istiqbolda yashil iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyotdan o'tib ketadi va bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish nuqtai nazaridan ancha ko'p foyda keltiradi. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun asosiy sektorga jahon yalpi ichki mahsulotining kamida 2 foizini sarmoya kiritish zarur. Bu mablag'larni puxta o'ylangan davlat siyosatini amalga oshirish va moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlaridan foydalangan holda jalb qilish mumkin. Yashil iqtisodga o'tish shunchalik ko'p yangi ish o'rinalarini yaratadiki, vaqt o'tishi bilan bu jigarrang iqtisodiyotda bandlikning pasayishini qoplaydi.

Bu, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, uy-joy kommunal xo‘jaligi, energetika va transport sohalariga tegishli. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurarti quyidagi muammolarda o‘z yechimini topadi:

- xalq xo‘jaligida iste`mol qilinadigan energiyaning katta qismi qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalangan holda ishlab chiqarilishi;
- resurslarning cheklangan ta'minoti;
- sanoatning jadal rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi;
- suv tanqisligi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishida tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, kam uglerodli energetika, ifloslanish darajasini pasaytirish, iqlim o‘zgarishi masalalariga yechim topishni asosiy maqsad deb biladi. Barqaror rivojlanishni ta`minlash maqsadida iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatli, uzlusiz rivojlanishi holati bo‘lib, aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirishga asoslangan va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga qaratilgan. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashda iqtisodiy o‘sishni maksimal darajada oshirish va bozor tizimidagi ehtiyojlarni to‘liq qondirish masalalari asosiy e’tiborda bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish bilan iqtisodiy o‘sishni maksimal darajada oshirish va aholi ehtiyojlarini qondirish pirovard natijada aholi farovonligini oshirishga erishish mumkinligi ko‘zga tutilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyot - bu inson farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishiga, ekologik xavf va ekologik tanqislikning sezilarli darajada pasayishiga olib keladigan iqtisodiyotdir. Yashil iqtisodiyotga o‘tish yashil texnologiyalarga asoslangan ekologik toza mahsulotlarni yaratishga qaratilgan rivojlanishning yangi bosqichi bo‘lib tabiatga yordam beradigan va foya keltiradigan yangi texnologiyalar, ekotizimlarni o‘z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiy o‘sish va rivojlanishini rag‘batlantirishda, shu bilan birga tabiiy boyliklar saqlanib qolishi va farovonligimizga bog‘liq bo‘lgan resurslar va ekotizim xizmatlarini taqdim etishda davom etishini ta`minlaydi. Yashil iqtisodiyot mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rnlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag‘batlantiradi. Yashil iqtisodiyot, asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o‘sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta`minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta`minlaydi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqlim o‘zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo‘qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/-4539502#-4542614>
2. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlari <https://cityeconomy.uz/uz>
3. Vahobov A. V., Xojibakiyev Sh. X.: “Yashil iqtisodiyot” darslik
4. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
5. www.worldbank.org - Jahon bankining rasmiy ma’lumotlari
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>